

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**MS**  
**2022**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

---

MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo‘lajak chizmachilik o‘qituvchilarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o‘rni .....	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san’atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati .....	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o‘qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida) .....	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o‘qitishda me‘morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati .....	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda milliy qadriyat va an‘analarning o‘rni .....	21
Shuhrat G‘ULOMOV. Tarixiy janrda O‘zbekiston tasviriy san’ati rivoji .....	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to‘g‘ri qo‘llash tartibi va ularning emotsional ta’siri .....	27
Qoryog‘di JUMAYEV. Kasb-hunar ta’limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari .....	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san’at o‘qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor .....	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин .....	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san’ati .....	37
Muhayyo AZIMOVA. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati turlari va ularning o‘ziga xos tomonlari .....	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san’atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi .....	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE‘MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi .....	47
Oybek SHOMURODOV. O‘rta maktab tasviriy san’at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish .....	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san’atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o‘rni .....	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o‘lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o‘ziga xos usullari .....	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san’at darslarida borliqni idrok etish hamda o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish .....	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона .....	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O‘zbekiston rassomlari ijodida manzara janri .....	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. “Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko‘chirish” modulini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati .....	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san’atining bir turi sifatida .....	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO‘RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san’atda ranglardan foydalanish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari .....	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish .....	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari .....	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san’atning shaxs ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni .....	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san’atni o‘qitishda borliqni idrok etish mashg‘ulotlari .....	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san’atni qo‘llanilishi .....	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish .....	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san’ati .....	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlarini o‘rgatish metodikasi .....	103
Jo‘rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O‘rta ta’lim maktablarda musiqaning muammo va yechimlari .....	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения .....	108
Jo‘rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi .....	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta’lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari .....	117
Jo‘rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo‘llashning mazmuni .....	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta’limi orqali milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalash .....	122

## XALQ HUNARMANDCHILIGI DARSLARIDA AMALIY BEZAK SAN'ATI MASHG'ULOTLARINI O'RGATISH METODIKASI

*Mazkur maqolada o'zbek xalq amaliy san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari, amaliy san'at asarlarini idrok etish, bolalarda badiiy estetik didni o'stirish, milliy g'ururni shakllantirishga yordam berish, ularni vatanga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor berish kerakligi hamda amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi bilan bog'liq muhim jihatlar qayd etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *amaliy bezak san'ati, metod, badiiy-estetik buyumlar, ranglar uyg'unligi, kompozitsiya, milliy g'urur.*

*В статье рассматриваются узбекские народные искусства и их особенности, восприятие прикладного искусства, развитие художественно-эстетического вкуса у детей, формирование национальной гордости, их воспитание в духе патриотизма. Важные аспекты, связанные с методикой проведения занятий по декоративно-прикладному искусству.*

**Ключевые слова:** *декоративно-прикладное искусство, метод, художественно-эстетические предметы, цветовая гармония, композиция, национальная гордость.*

*The article focuses on the Uzbek folk arts and their peculiarities, the perception of works of applied art, the development of artistic and aesthetic taste in children, the formation national pride, their upbringing in the spirit of patriotism. Important aspect related to the methodology of conduction classes in applied decorative arts.*

**Key words:** *applied decorative art, method, artistic aesthetic items, color harmony, composition, national pride.*

**Kirish.** Metod (yunoncha – metodos – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Inson dastlab atrofda narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarni to'plab boradi.

**Asosiy qism.** Kundalik turmushda voqelikka asoslangan badiiy-estetik buyumlarga bo'lgan ehtiyoj nihoyatda yuqori. Bu esa o'z-o'zidan amaliy bezak san'atiga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Amaliy bezak san'ati namunalarni yaratishda uning metodlarini o'rganish muhim va ahamiyatlidir.

O'zbek xalq amaliy san'ati juda qadimiy san'at turi bo'lib, xalqimizning kundalik turmushi bilan keng va chambarchas bog'langan. Shu bilan birga, u mamlakatimizda qadimdan rivoj topgan hamda jahonda shuhrat qozongan. O'zbek xalqi bundan faxrlanishi lozim, chunki bu ularda milliy g'urur shakllanishiga xizmat qiladi.

Amaliy badiiy bezak san'ati - san'atning teatr, kino, musiqa, tasviriy san'at kabi turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o'z nomiga ko'ra amaliyotda, ya'ni turmushda qo'llaniladigan bezak san'ati ma'nosini anglatadi. Amaliy badiiy bezak san'ati turli xil buyumlar, ko'chalar va maydonlar, istirohat bog'lari, ishlab chiqarish, o'quv-tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog'liqdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o'z ichiga oladi. Amaliy bezak san'ati kishilar turmushida shunchalik keng qo'llaniladiki, usiz turmushni tasavvur qilish qiyin.

Amaliy bezak san'atining asosiy maqsadi kishilar yashaydigan muhitni va o'zini o'rab olgan buyumlarni chiroyli qilishdan iborat. San'atning bu turida go'zallik birligi degan ibora bor. U buyumlarni faqat turmushda qo'llanilgandagina go'zal bo'lishi mumkinligini bildiradi. Hatto, ayrim buyumlar bezaksiz bo'lganda ham go'zal va badiiy bo'lishi mumkin. Bunda buyumning shakli va materiali katta ahamiyat kasb etadi.

Amaliy bezak san'atida shakl muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda buyum har jihatdan maqsadga muvofiq ishlansa-yu, uning shakli topilmasa, u chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Masalan, palov uchun

mo'ljallangan sopol laganni tog'ora yoki chelak shaklida ishlash mumkin emas. Chunki u laganning vazifasiga mos tushmaydi. Palovni tog'oradan qo'l bilan olib yeyish ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham amaliy bezak san'ati buyumini yaratishda buyum shakli uning vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi lozim.

Amaliy badiiy bezak san'ati buyumlarni tayyorlashda uning materialini to'g'ri tanlash muhimdir. Masalan, lagan va piyolani yog'ochdan, xontaxta va kursilarni toshdan, kiyim va kechaklarni loy yoki ganchdan tayyorlash maqsadga muvofiq emas. Chunki, bu materiallar shu buyumlarning vazifasiga mos kelmaydi. Aytaylik, idish tovoqlar tayyorlashda usta oziq-ovqat yoki ichimlik solinishini hisobga olishi lozim. Usta lagan tayyorlaydigan bo'lsa, uni metaldan yoki toshdan tayyorlamaydi. Chunki lagan metallardan tayyorlansa birinchidan, og'ir bo'ladi, ikkinchidan, unga suzilgan ovqat tez sovub qoladi. Amaliy san'atda ustalar yasaladigan buyumning vazifasiga qarab, mavjud barcha materiallardan foydalanadilar. Ular tuproq, tosh, suyak, yog'och, gazmol, ganch, metall va boshqalar. So'ngi vaqtlarda sintetik materiallar ham keng qo'llanilmoqda.

Amaliy bezak san'atini rangsiz tasavvur etish qiyin. Ayrim ustalar buyum materialiga (masalan, yog'ochga) ishlov berib, ularning ta'sir kuchini oshirsalar, boshqa ustalar bo'yoqlar yordamida buyumlarga rang berib ularning ko'rkini ochadilar. Amaliy bezak buyumlariga rang berishda ustalar ularning vazifasidan, ishlatilgan materiallaridan kelib chiqadilar.

Amaliy bezak san'ati buyumlarida yana muhim bir jihat - ularning o'lchovlari hisoblanadi. Bu degan so'z, amaliy bezak san'ati buyumini yaratuvchi har bir usta yaratilajak buyumning vazifasini e'tiborga olib, uning o'lchovini to'g'ri olishi kerakligini bildiradi. Xususan, choynakni xumdek kattalikda, so'zanini dastro'moldek yoki ayollar taqinchoqlari solinadigan qutichani sandiqdek o'lchovda yasash mumkin emas. Aks holda ular foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Shunday qilib, amaliy san'at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o'lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundagina bu buyumlar kishilarni hayajonlantiradi, to'liqlantiradi va ularga zavq bag'ishlaydi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. O'zbekistonda amaliy sanat turlari juda xilma-xil va rango-rang bo'lib, butun dunyo xalqlarini lol qoldirishga qodir sanaladi. Qadimda mashhur amaliy san'atimiz mamlakatimiz dovrug'ini dunyoga taratadi.

O'zbek amaliy bezak san'ati turlarining ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga taqaladi. Amaliy san'atga chuqur falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stilizatsiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlarini yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lib, xozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimizdagi ganchkorlik, naqqoshlik, koshinkorlik, hattotlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan iboratdir.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, savatchilik, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, bo'yrachilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, kashtachilik kabi turlari butun jahonga dong'i ketgan.

Naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. Naqsh arabcha "tasvir", "gul" degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa shakllarini ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Badiiy naqqoshlik ranglarni uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi. Mustaqil naqsh tuzish jarayonida stilizatsiya orqali naqsh elementlari o'zaro birlashtiriladi. Murakkab naqsh kompozitsiyasini yaratishda bitta kompozitsiyaning o'zidayoq o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy naqsh turlaridan foydalanish bebaho san'at asarining takrorlanmas namunasi yaratilishiga sababchi bo'ladi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda, metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtiq qilib naqsh ishlash tushuniladi. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar. Qadimgi va ilk o'rta asr kandakorligi asosan, kumush buyumlarda o'z ifodasini topgan. O'n birinchi asrdan boshlab kandakorlik mahsulotlarini mis hamda mis qotishmalaridan tayyorlay boshlaganlar. Buxoro kandakorligi eng mashhur kandakorlik maktablaridandir. Bu maktab o'zining oddiyliги va shakllarining qat'iyligi bilan ajralib turadi.

Buxoro kandakorlik maktabida yaratilgan buyumlardagi naqshlar yirik va nafisdir. Buxoro bezagiga "Kundal" deb yuritiladigan naqsh alohida ta'sirchanlik kasb etadi. Kandakorlik san'ati turini o'rganish kishidan alohida e'tiborni hamda yuqori izchillikni talab etadi.

Amaliy san'atning eng go'zal namunalaridan biri zardo'zlik san'atidir.

Zardo'zlik - hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri bo'lib, zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha "zar" (tilla), "do'zi" (tikmoq) so'zini anglatadi. Zardo'zlikning vatani Vavilonidir. Qadimgi tarixdan zarbof kiyimlar mashhur shaxslarning eng noyob kiyimi bo'lgan. Samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lgan. U matolarga zardan ajyoyib kashtalar tikkan. Zardo'zlikda o'ttiz xil klassik tikish usullari mavjud.

Zamindo'zi - bunda zar tikilayotgan kiyim yoki kiyim gul naqshining zamini yoppasiga zar bilan tikiladi. Zamindo'zi siddi ustiga tikilib, siddi jaydari ipakdan tayyorlanadi. Birinchi navbatda, ip to'rt yoki besh qavat qilib, keyin esa ikki qavat qilib eshiladi. Shu hosil bo'lgan ingichka ip zardo'zlikda siddi deb yuritiladi.

Guldo'zi - bunda tikilayotgan naqshning tagi ochiq qolib faqat gul naqshlarining o'zi zar bilan tikiladi.

Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy qarashlarini shakllantirishda hamda ma'daniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan hisoblanadi.

**Muhokamalar va natijalar.** Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san'atni o'qitish hamda amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi kursi alohida o'rin egallaydi. Chunki o'qitish metodlarini bilmay turib, mashg'ulot olib borib bo'lmaydi.

Xalq amaliy san'atini o'rganish o'quvchilarni badiiy didini o'stirish, borliqqa estetik munosabatini shakllantirish va badiiy fikr doirasini kengaytirish borasidagina emas, balki u bolalarning tasviriy ijodiy faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar qadimgi xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan mavzuda rasm ishlar ekanlar, ular bevosita uy jihozlari (so'zana, gilam, lagan, choynak, piyola, oftoba, qumg'on, xum, sandiq va h.k.), yog'och va ganch o'ymakorligi buyumlarini tasvirlashlariga to'g'ri keladi bunda ularga xalq amaliy san'atidan olgan bilim va tushunchalari qo'l keladi.

Bo'lg'usi o'qituvchilar maktabda amaliy bezak san'atini o'rgatishda uning metodikasi bilan bir qatorda quyidagi vazifalarni ham amalga oshirishlari zarurligi nazarda tutiladi:

- o'quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari va badiiy didini o'stirish;
- amaliy bezak san'ati yuzasidan bolalar bilimini kengaytirish;
- o'quvchilarning tasviriy malakalarini rivojlantirish;
- o'zbek xalq amaliy san'atining milliy badiiy an'analari bilan tanishtirish;
- bolalarda xalq amaliy san'atiga mehr uyg'otish;
- o'quvchilarning axloqiy, estetik tarbiyasiga ko'maklashish;
- o'zbek xalq amaliy san'ati va uning jahonga mashhur ustalari bilan faxrlanish hissini tarbiyalash.

**Xulosa.** O'zbek xalq amaliy san'atining barcha muhim xususiyatlaridan foydalanib, har bir talaba o'z faoliyatida yuqorida ta'kidlangan asosiy metod va masalalarga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar**

1. Ahmedov M. K. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. –Toshkent, 1997.
2. Bulatov S. O'zbek amaliy bezak san'ati. –Toshkent: "Mehnat", 1991.
3. Bulatov S.S. Ganchkorlik va naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi atamalariga izohli lug'at. – Toshkent: "Mehnat", 1991.
4. Shoyoqubov Sh. K. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati// Metodik qo'llanma. -T.: "O'zbekiston", 2009. -136 bet.
5. М.Н. Каримова. О современных методах оstenки знаний и умений учащихся колледжей в личноcтно-ориентированной технологии обучения Молодой ученый, 277-281.
6. Ш.Х Кулиева, М.Н Каримова, М.Х Давлаткулова. Организаcтия теоретических и практических занятий в простeссе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый, 804-807.
7. М.Н. Каримова. Метод самоуправления образованием. Молодой ученый, 808-810
8. Каримова М.Н. Гендерные аспекты формирования профессионфльного современного инженера. International scientific review of the problems of pedagogy and psychology. Boston. USA. April 18-19, 2018, 58 str.
9. М.Н. Каримова. Методы образования, ориентированные на деятелност и самостоятельное действие при обучении спeциальным предметам. Молодой ученый, 810-812.
10. М.Н. Каримова. Manufacture of Modern Sewing and Knitting Products, Used by Mass Demand. Eastern European Scientific Journal, 71-73